

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| Dizayn (kostyum) sohasi neologizmlarining tarjimadagi xususiyatlari | 430 |
| I.Xoldarova, X.Erg'oziyeva | |
| Ona tili darslarida fonetikani o'rgatish orqali orfografik va orfoepik bilimlarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va mashqlarning o'rni | 434 |
| K.Turgunaliyeva, D.Mirzayeva | |
| O'zbek va ingliz tillaridagi she'rlarning stilistik tahlili | 439 |
| Sh.Turg'unov | |
| O'zbek xalq o'lanlarida etnik mansubiyat ifodasi | 442 |
| R.M.Ubaydullayev, U.R.Abdullayev | |
| Jismoniy mashqlar maktab o'quvchi yoshlarning morfofunksional xususiyatlariga bog'liqligini tahlili | 447 |
| I.Akramov | |
| Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari | 450 |
| L.Badalova | |
| Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati | 455 |
| S.Eshonqulova | |
| Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida Qo'qon adabiy muhitining o'rni | 458 |
| H.Dusmatov, M.Husaynova | |
| O'zbek latifalarida so'z o'yinlarining uslubiy-pragmatik xususiyatlari | 468 |
| N.Shavilova | |
| Rus va o'zbek tillarida paronimlarning tasnifi..... | 472 |
| M.Xusanova, M.Xusanova | |
| Somatik kodlar tadqiqiga doir..... | 478 |
| M.Rahimova | |
| O'zbek tilida leksik nomemalar..... | 481 |
| D.Sirojiddinova | |
| Ingliz tilida modal so'zlar muqobillari haqida umumiy qarashlar..... | 484 |
| D.Raximjonova | |
| Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari..... | 489 |
| U.Eshmuradov | |
| Til o'rganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari: til o'rganuvchilar tajribasi..... | 493 |
| A.Rasulova | |
| To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi | 497 |
| G.Odilova | |
| Glyuttonik diskursning lingvistik xususiyatlari | 500 |
| X.Abdurahmonov | |
| O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati | 504 |
| M.Otaboyeva | |
| O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarlarning o'xhash va farqli jihatlari | 508 |
| G.Rozikova | |
| So'z semantik taraqqiyotidagi o'zgarishlar xususida..... | 511 |
| Sh.Siddiqova | |
| O'ziniki bo'limgan ko'chirma gaplarda obrazlilikni ta'minlovchi semantik-stilistik faktorlar..... | 516 |
| N.Usarova | |
| Tarjima muammosining nazariy jihatlari | 520 |
| K.To'xtaeva | |
| C1 darajadagi talabalarga ingliz tilini o'qitish muammolari..... | 524 |
| Z.Usmonova | |
| Rey Bredberining "Marsga hujum" ("The martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari..... | 531 |
| G.Davlyatova, Sh.Artikova | |
| Ritorik nutqda pleonastik birliklarning foydalanishi | 535 |
| G.Mamadjanova | |

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHE'RLARNING STILISTIK TAHLILI**СТИЛИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТИХОТВОРЕНИЙ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****STYLISTIC ANALYSIS OF POEMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES**

Turgunaliyeva Kristina Ma'rufjonovna¹ Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna²

¹Turgunaliyeva Kristina Ma'rufjonovna

– Farg'ona davlat universiteti magistratura talabasi.

²Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna

– Farg'ona davlat universiteti f.f.b.f.d (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolaning maqsadi stilistik vositalarning turlari va ularning she'r ta'sir kuchini oshirishdagi o'rnini yoritib berishdan iborat. Stilistik vositalarning she'riy matnlarda qo'llanilishi hamda ularga misollar keltirilgan, ingliz va o'zbek tilidagi she'rler stilistik jihatdan tahlil qilingan. Stilistik tahlil asosida badiiy asar tilini o'rganish, unda yakunlovchi obrazli ma'lumot topish va shu bilan birga tahlilni parchalangan mikroobrazlar yig'indisiga aylantirmagan holda she'rni shoirona go'zallik va yaxlitlikdan ayirmaslik kerak, degan xulosaga kelindi.

Аннотация

Цель данной статьи описать виды стилистических приемов и их роль в усилении воздействия поэзии. Приведены примеры использования стилистических приемов в поэтических текстах. Стилистически проанализированы стихи на английском и узбекском языках. Сделан вывод, что на основе стилистического анализа можно исследовать язык художественного произведения, найти заключительную в нем образную информацию и вместе с тем не свести анализ к набору разрозненных микрообразов, не лишить стихотворение его поэтического очарования и цельности.

Abstract

The aim of this article is to describe the types of stylistic devices and their role in enhancing the impact of poetry. Examples of the use of stylistic devices in poetic texts are given. Stylistically analyzed poems in English and Uzbek languages. It is concluded that on the basis of stylistic analysis it is possible to explore the language of a work of art, find the final figurative information in it and at the same time not reduce the analysis to a set of disparate micro-images, not deprive the poem of its poetic charm and integrity.

Kalit so'zlar: Stilik, sintaktik vositalar, intonatsiya, ritorik so'roq, antiteza, parallelizm, takror, anafora, inversiya.

Ключевые слова: Стилистический, синтаксические средства, Интонация, Риторический вопрос, Антиметаз, Параллелизм, Повтор, Анафора, Инверсия.

Key words: Stylistic, syntactic means, Intonation, Rhetorical question, Antithesis, Parallelism, Repetition, Anaphora, Inversion.

KIRISH

Tilshunoslikning xilma-xil tarmoqlari mavjud. Ular orasida stilistika rang – barangligi bilan ajralib turadi. Stilikta (yun. stylos — yozuv, xat tayoqchasi), uslubshunoslik, uslubiyat — tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, so'z yasalishi va sintaktik sathlarda sinxronik va diaxronik nuqtayi nazaridan funksional qatlamlanishining mohiyati va o'ziga xosliklarini o'rganuvchi, adabiy tilni turlili soniy va ziyyatlarda, yozma adabiyotning xilma-xil tur va janrlarida, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llash me'yorlari va usullarini tafsiflovchi tarmog'idir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Muallif badiiy matnlarda turli stilistik vositalardan ekspressivlikni ifodalash uchun foydalanadi. Shu bilan birga she'riyatda ham stilistik vositalar aksariyat shoirlarning ijodida uchraydi. Maqolada o'zbek va ingliz shoirlarining she'riyatidan parchalar berilib, ulardag'i stilistik vositalarning turlari batafsil yoritiladi. Stilik vositalarning tahlil jarayonida biz A.Hojahmedov, Q.Musayev, E.Qilichov va Sh.Bakerlarning tadqiqotlariga yondashdik[1,2,3,4]. Maqolada qiyosiy tahlil metodi qo'llandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Stilistik sintaktik vositalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: intonatsiya, ritorik murojaat, ritorik so'roq, antiteza, parallelizm ,takror, anafora, epifora, apostrofa, ellipsis,inversiya[1]. Quyida bir necha ijod namunalarini stilistik jihatdan tahlil qilib o'tamiz:

**Orzu qilsang, tillolardan ko'shakli taxtni,
Quchay desang, olamda yo'q tugal baxtni,
Kel do'stginam,belni bog'lab buzmay ahndni,
Shohlikni qo'y,o'z onangga qullik qilgin!..**

Inglizcha tarjimasি:

**If you dream a throne which is made of gold'
If you want to embrace all happiness in the world'
Come my friend keep your oath forget the other'
Refuse to the kingdom and serve your mother.**

Tarjimadan ko'rinish turibdiki, bu aynan so'zma-so'z tarjima emas, balki o'zaro ohangdorlikni saqlab qolish maqsadida tarjimon tomonidan she'riy tarjimada qayta yaratish san'atiga qo'l urilgan. Dastlabki misralar tarjimasida badiiy san'at unsurlaridan biri – anaphora san'atini ko'rish mumkin. Anafora bu – bir xil so'zning yoki tovushning misralar yoxud gap boshida takrorlanib kelishiga aytildi. 'If you' birikmasi misra boshida takrorlanib kelib, ta'sirchanlikni, she'rning ohangdorligini oshirgan. Dastlabki misrada inversiya hodisasini ko'rishimiz mumkin. Inversiya (lat. Inversid – o'rın almashtirish)da ijodkor xohishi(g'oyasi)ga ko'ra ta'kidlamoqchi bo'lgan fikrning ta'sirini oshirish maqsadida grammatik qoidalardan chekinadi va kitobxonni aynan shu fikr (so'z)ga diqqatini tortadi.

Intonatsiya(lat. Intonate-qattiqtalaffuzetish) – ohang – badiiy asar bilan birga tug'iladi. Uni ilg'ash – asardagi har bir so'z va gapning asosida yotgan mazmuni to'g'ri anglash uchun , albatta, uning ohangini sezish talab qilinadi.

Ritorik so'roq-poetik fikrni so'roq shaklida tasdiqlashdir, ya'ni so'roqning o'zida javob ham mujassamlashgan bo'ladi; faqat fikr yorqinlashib, teranlashib, qirralarini ham oshkor etib – estetik ta'sirchanligini yuzaga keltiradi. Masalan,

Men yo'qsil,na bo'lib uni suybmen,
Uningchun yonib men, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyib... men suyib, kimni suybmen?
Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Ushbu parchada "Men suyib...men suyib, kimni suybmen? Misrasida ritorik so'roq gap qo'llangan. Parallelizm(gr.parallelos-yonma-yon boruvchi) – ikki yoki undan ortiq hodisa, narsa, predmetka bilarni yonma-yon tasvirlash(zidlashtirish, qiyoslashtirish,muqoyasalashtirish) orqali-asarda gipoetik fikr(g'oya)ni konkretlashtirish, uning ta'sirchanligini kuchaytirish vositasidir.

Takror – ayrim so'z va iboralarning, ba'zan misralar yoki birnecha misralarning muayyan bir tartib asosida qayta-qayta qo'llanilishidir.

Seni ko'rsa ochilsin gullar,
Seni ko'rsa yonsin bulbullar,
Seni ko'rgan bari topsin jon,
Sen yurgan yo'l ko'rmasin xazon[2].

Ushbu parchada"Seni ko'rsa"- birikmasi takrorlanib kelib, ta'sirchanlikni oshirgan.

Apostrofa(gr.apostrophe-og'ish) ham stilistik vositalardandir. Unda jonsiz narsa va hodisaga xuddi jonliday, o'zi yo'q shaxsga xuddi borday murojaat qilinadi:

She'rim, yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gular sharmanda,
Bir men emas, hayot shaxsisan
Jonim kabi yashaysan manda.

TILSHUNOSLIK

Inversiya (lat. Inversid – o'rın almashtirish)da ijodkor xohishi (g'oyasi)ga ko'ra ta'kidlamoqchi bo'lgan fikrni ta'sirdor qilmoq maqsadida grammatic qoidalardan chekinadi va kitobxонни aynan shu fikr (so'z)ga diqqatini tortadi [3]:

Stilistik vositalardan kundalik so'zlashuv jarayonida va badiiy adabiyotda keng foydalanib kelinadi ularning ba'zilari o'xshatishga asoslangan bo'lsa ba'zilari esa ma'no kuchaytirish matnning bo'yoqdorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shulardan biri oksimoron (oxymoron) stilistik vositasidir. Oksimoron (oxymoron yunoncha oksús "sharp", "keen, pointed" o'tkir, keskin vamōros, dull' stupid' foolish'be'mani) so'zlarning bir biriga nomantiqiy bog'lan ishidan hosil bo'lgan stilistik vosita bo'lib, ikki tilda ham og'zaki va yozma badiiy nutqda juda keng qo'llaniladi.

Kundalik so'zlashuv turmush tarzida biz oksimoroni tez-tez uchratib turamiz masalan, yomon zo'r, dahshatchiroysi,aqliahmoq,haqiqiyoyg'onvashukabilar.Mashhuringlizyozuvchisi Jon Miltonningquyidagishe'riymisrasida ham oksimoronaqo'llanilganiniko'rshimizmumkin[4].

Then had I not been thus exiled from light,
As in the land of darkness' yet in light,
To live a life half dead' a living death,
And buried; but' O yet more miserable!

Antitezastilik uslullardan biribo'lib,qarama-qarshi ma'nolar asosiga quriladi va voqelikning yorqin va timsolli bo'lishini ta'minlaydi. Ingliz tilida antitezaning ikki turi mavjud bo'lib,ular mantiqiy antiteza va lug'aviy antonimlardir [5].

We are young' friend, like the flowers,
You are old, friend, like the tree,
What concern have you with ours ?
You are dying'we,re to be
It is very true, I'm dying'
You are roses still in bud...(J.Mansfield).
Ushbu parchani mantiqiy antitezaga misol keltirishimiz mumkin.

XULOSA

San'at asari quruq yondashuvga qarshilik ko'rsatuvchi jonli hodisadir. Nasrdan ko'ra she'riy matnni tahlil qilish qiyinroq, chunki baytning uyg'unligini buzish qiyin emas.

She'r shoir qalbining ko'zgusi ekanligini unutmaslik, muallif asar yozish chog'ida qanday tuyg'ularni boshidan kechirganini, nimani his qilganini anglash va shu asosda tahlil qilish zarur.

She'rni chuqur anglash uchun ba'zan uning yozilgan sanasi, nashr etilganligi, muallif biografiyasidagi lirik syujet bilan bog'liq yoki badiiy matnning yaratilish tarixi bilan bog'liq bo'lgan faktlarni bilish talab etiladi.

Stilistik tahlil asosida badiiy asar tilini o'rganish, unda yakunlovchi obrazli ma'lumot topish, va shu bilan birga tahlilni parchalangan mikro obrazlarga bo'linmasligi, she'rni shoirona go'zallik va yaxlidlikdan uzmasligi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qilichov E. —O'zbektiliningamaliystistikasi O'qituvchi 1992. (Qilichov E.- Practical stylistics of the Uzbek language Teacher 1992).
2. Musaev Q. —English stylistics. Tashkent 2003.
3. Baker Sh. —The complete stylist New York 1992.
4. Hojiahmedov A. She'riyan'atlarvumumtozqofiya. – T.: Sharq' 1998. – B.160. (Khodzhiakhmedov A. Poetic arts and classical rhyme. - T.: East 1998. - P.160).
5. Hojiahmedov A. She'rsan'atlarinibilasizmi? – T.: Sharq, 2001. – B. 96 (Khodzhiakhmedov A. Do you know the art of poetry?- T.: East, 2001.- P.96).